

DORI VOSITALARI BILAN O'TKIR ZAHARLANISHLARNI DAVOLASHNING UMUMIY TAMOYILLARI

Isayeva Shohidaxon Yusufjon qizi
ADU Jismoniy madaniyat fakulteti Odam
fiziologiyasi va hayot faoliyati xavfsizligi o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi kunda tibbiyotda dori vositalarining keng ko'lamda ishlatilishi oqibatida o'tkir zaharlanish holatlari tez-tez uchramoqda. Ayniqsa o'z-o'zini davolash maqsadida psixotrop preparatlarini ishlatilishi maishiy «kimyo» kasalligiga» sababchi bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: surunkali, preparat, tolerant, Barbiturat, plazma

Abstract: Today, due to the widespread use of drugs in medicine, cases of acute poisoning are common. In particular, the use of psychotropic drugs for self-medication is the cause of household "chemistry" disease.

Key words: chronic, drug, tolerant, barbiturate, plasma

Аннотация: Сегодня в связи с широким применением лекарственных средств в медицине нередки случаи острых отравлений. В частности, употребление психотропных препаратов в целях самолечения является причиной бытовой «химической» болезни.

Ключевые слова: хронический, препарат, толерантность, барбитураты, плазма.

Oxirgi yillarda barbituratlar, tritsiklik antidepressantlar (amitriptilin), narkotiklar bilan o'tkir va surunkali zaharlanish holatlar ko'paymoqda. O'z-o'zini davolash, o'z-o'zini o'ldirish maqsadida ishlatilgan bu preparatlar xorij mamlakatlarida barcha maishiy zaharlanishlarning $\frac{3}{4}$ qismini tashkil qiladi [1].

Barbituratlar bilan o'tkir zaharlanish birinchi marta Germaniyada, ular klinik amaliyotga kiritilganidan so'ng XX asr boshlarida qayd qilina boshlandi. Barbituratlar - oq yoki sariq kristallar bo'lib, suvda oz eriydi, yog'da esa yaxshi eriydi. Barbituratlarning natriyli tuzi esa aksincha. Barbituratlar oshqozon-ichak yo'lida passiv diffuz yo'li bilan so'riladi, alkogol ishtirokida esa yana tezlashadi. Plazmada barbitalning eng yuqori konsentratsiyasi 4-8 soatdan so'ng, fenobarbitalniki esa 12-18 soatdan so'ng yuzaga chiqadi. Koma holatida ichak peristaltikasi susayganligi sababli oshqozonda bir necha kungacha qolib ketishi mumkin [2.3].

Barbituratlar bilan zaharlangandagi tabiiy detoksikatsiya jarayonlariga kiradi:

1. Preparatni organizmda yog'ga eruvchanligiga qarab teng taqsimlanishi va oqsillar bilan bog'lanishi.

2. Jigardagi metabolitik o'zgarishlar natijasida faol va nofaol moddalarga aylanishi.

3. Preparatlarning metabolitlari bilan siydik orqali ajralishi.

4. Preparatlarga o'tkir va surunkali tolerantlikning (o'rganib qolish) rivojlanishi.

Barbituratlar plazma oqsillari bilan qanchalik kam bog'lansa, shuncha ko'proq miqdorda siydik bilan ajraladi. Barbituratlarni organizmga qayta tushishi tolerantlikka sababchi bo'ladi, chunki jigarning mikrosomal fermentlari faolligiga bog'liq bo'ladi. Barbituratlarning o'limga olib boradigan miqdori induvidial bo'lib, MNS sezgirligiga bog'liq.

Har qanday psixotrop vositalaridan zaharlanish bir qancha klinik bosqichlardan iborat bo'ladi:

I. Bosqich - uyqu bosqichi

II. Bosqich – yuzaki koma

III. Bosqich - chuqur koma

IV. Bosqich - qo‘zg‘alish

Psixotrop vositalar bilan zaharlanganda reanimatsion va simptomatik davo usullarini qo‘llash, bemor ahvolining og‘irligiga qarab organizmni faol ravishda zaharlangan preparatlardan holi qilish usullaridan foydalanish zarur. Surunkali zaharlanishda esa zaharli preparatlarning organizmga tushishini to‘xtatish, vitaminlar bilan davolash (B1, B6 va B12 vitaminlari bilan), psixoterapiya usulini qo‘llash. Organizmga vena orqali glyukoza – tuz eritmalarini B1, B6 vitaminlari bilan yuborish, gemosorbtsiya, neyroleptiklar (galoperidol) yaxshi samara beradi. Alkogol va uning surrogatlari bilan zaharlanish. Alkogol bilan o‘tkir zaharlanish odatda tarkibida 12% yuqori etil spirti bo‘lgan ichimlik yoki etil spirti qabul qilinganda kuzatiladi. O‘lim bilan tugovchi zaharlanish holatlarining 60% alkogol bilan zaharlanishga to‘g‘ri keladi [3.4].

Alkogol surrogatlari etil spirti asosida tayyorlangan, turli qo‘shimchali ichimliklarga va etil spirti bo‘lmagan, bir yoki ko‘p atomli spirtlarga bo‘linadi. Birinchi guruhga gidroliz va sulfidli spirtlar (yog‘ochdan olingan gidrolizli spirt), denaturat (tarkibida ozgina metil spirt va aldegidlar bo‘lgan texnik spirt), odekolon va losonlar (60%gacha etil spirti va efir moylari bo‘lgan) va boshqalar kiradi. YUqoridagi moddalar ichilganda alkogol bilan zaharlanishga o‘xshash alomatlar kuzatiladi. Ikkinchi guruhga esa metil spirti va etilenglikol kiradi [4].

Metanolning toksik ta‘siri MNSning ishdan chiqishi, og‘ir metabolik atsTBozning rivojlanishi, kuz to‘r pardasining buzilishi va ko‘ruv nervining distrofiyasi bilan bog‘liq. O‘limga olib keladigan miqdori-100ml. 100ml metanolni ichish oqibatida o‘lim yuz beradi.

Metanolning organizmga toksik ta‘siri ikki bosqichdan iborat. Boshlang‘ich bosqichda asosan organizmga narkotik ta‘sir ko‘rsatadi, keyinchalik esa ko‘rish nervlarida va kuz tur pardasida distrofik o‘zgarishlar yuzaga chiqadi. Klinik manzarasi. Zaharlanish klinikasida quyidagi davrlar tafovut qilinadi: mastlik-o‘zni soxta bardam tutish yoki yashirin davr (1—2 kun davom etadi), zaharlanishning asosiy belgilarini namoyon bo‘lishi va tuzalishdan iborat. Zaharlanishlar darajasiga qarab engil, o‘rtacha og‘irlikdagi oftalmik va og‘ir generallasgan turlarga farqlanadi. Zaharlanishning engil darajasida yashirin davrdan so‘ng umumiy darmonsizlik, ko‘ngil aynishi, qusish, bosh aylanishi, bosh og‘irishi va qorin sohasida og‘riq paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi. Ko‘pincha yuqorida ko‘rsatilgan alomatlarga ko‘rishning buzilishi qo‘shiladi Bunda zararlanganlar «kuz oldida tuman paydo bo‘lishidan» shikoyat qiladilar. Bu belgilar 2—3 kundan so‘ng xech qanday iz qoldirmasdan o‘tib ketadi [4.5]. O‘rta darajadagi zaharlanishda yuqorida ko‘rsatilgan klinik simptomlar kuchli darajada rivojlangan bo‘ladi, lekin ko‘rishning buzilishi asta-sekin rivojlanib boradi. Ba‘zan shunday hollar ro‘y beradiki, kechqurun metanol ichgan kishi ertalab turganda xech narsani ko‘rmaydigan bo‘lib qoladi, bir-ikki kundan so‘ng ko‘rish qobiliyati asta-sekin tiklana boshlaydi Bu bosqich barqaror xususiyatga ega emas, tuzalishdan bir necha kun o‘tgach ko‘rish yana yomonlashadi. Ko‘z oftalmoskopiya qilinganda zaharlanishning boshlang‘ich davrida ko‘z to‘r pardasining va ko‘rish nervining shishi kuzatiladi, kuz venalari kengayib, qon quyilishlar aniqlanadi. Ba‘zan ko‘rish nervining nevriti qayd etiladi. Og‘ir zaharlanishda klinik simptomlar yashirin davrsiz tezda yuzaga chiqadi. Birdaniga darmonsizlik, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, qorin sohasida kuchli og‘riq paydo bo‘ladi. Keyinchalik uyquchanlik, hushdan ketish kuzatiladi. Nafas olishning buzilishi tufayli gipoksiya holati paydo bo‘ladi, tsianoz kuzatiladi, yurak-tomirlar etishmovchiligi paydo bo‘ladi [6.7]. Tana harorati pasayib, sovuq ter bosadi. Ayrim

hollarda kuchli qo’zg’alishlar bilan birga klonik talvasalar yuzaga keladi. Zaharlanganlar tekshirib ko’rilganda kuz qorachig’i kengaygan bo’ladi, yorug’likka sezgirlik yo’qoladi. Tananing ko’karagan yoki qizargani aniqlanadi. Nafas olish, uning soni va chuqurligi o’zgarib, boshqacha bo’lib qoladi, hansirash paydo bo’ladi

Zaharlanishning yuzaga kelishi va kechishi zaharlovchi moddaning organizmga qaysi yo’l bilan kirganligiga, uning miqdori (dozasi), fizikkimyoviy holati, shuningdek, organizmning umumiy ahvoli va tashqi muhit omillariga bog’liq. Odamlarda zaharlanishning o’tkir va surunkali xili farq qilinadi. O’tkir zaharlanish tasodifiy va qasddan bo’lishi mumkin, ular zaharli moddaning organizmga bir marta kuchli ta’siri tufayli yuzaga kelib, hayotiy muhim funksiyalarning izdan chiqishi bilan kechadi. Surunkali zaharlanish. zaharli moddaning organizmga uzoq vaqt ozozdan ta’sir etishi oqibatida ro’y beradi; dorilardan bo’ladigan, shuningdek, kasbkorga aloqador zaharlanishlar kuzatiladi. Turmushda zaharlanish kundalik hayotda uchrab turadi.

Narkotik va uxlatuvchi dorilar (morfin, barbital, fenobarbital va h.k.)dan zaharlanishda mudrash, bosh aylanishi, quloq shang’illashi, qusish, tomir urishining sust va zaif bo’lishi, tirishish kuzatiladi. Zaharlanish alomatlari xilmaxil bo’lib, u jigar, buyrak, qon, markaziy va periferik nerv sistemasining qay daraja zararlanganiga bog’liq. Zaharlanishga sabab bo’lgan zaharli moddani iloji boricha organizmdan tezroq chiqarish choralarini ko’rish, zaharli moddaning zaharini kesuvchi ziddizaharlardan foydalanish, zaharlangan a’zolar faoliyatini tiklashdan iborat [7].

Zaharli moddalarni organizmdan chiqarib tashlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Zaharlovchi moddaning asosiy so’rilish joylaridan qonga o’tishiga to’sqinlik qilish;
2. Agarda zaharlovchi modda qisman yoki to’liq so’rilgan bo’lsa, u holda uning organizmdan chiqarib yuborilishini tezlashtirish;

3. Zaharlovchi moddaga nisbatan ziddizahar (antidot) larni qo’llash orqali uning faolsizlanishiga erishish;

4. Zaharlovchi modda keltirib chiqargan salbiy oqibatlarni bartaraf etish;

5. Har qanday sharoitlarda dori moddalar bilan o’tkir zaharlanishlarning oldini olish

- 1) zaharlovchi moddaning qonga o’tishiga to’sqinlik qilish Ko’pchilik holatlarda o’tkir zaharlanish dori moddalarini ichish orqali qabul qilishda kuzatiladi. Bunday paytda asosiy e’tibor oshqozonni zaharlovchi moddadan tozalashga qaratilishi lozim. Ba’zan qayt mahsulotlarining nafas yo’llariga tushishi natijasida nafas yo’llari shilliq qavatining kuyishi kuzatilishi ehtimoli ham mavjud. Shuning uchun bunday paytlarda eng xavfsiz va samarali chora – oshqozonni zond yordamida yuvish hisoblanadi. Bunda oshqozonni iliq suv, osh tuzining izotonik eritmasi yoki kaliy permanganatining past konsentratsiyali eritmasi bilan yuviladi [7.8].

- 2) qonga tushgan zaharlovchi moddaning chiqarilishini tezlashtirish. Agarda zaharlovchi modda qonga qisman yoki to’liq so’rilgan bo’lsa, u holda barcha asosiy chora-tadbirlar uni tezroq organizmdan chiqarib yuborishga qaratiladi. Buning uchun forsirlangan diurez, peritoneal dializ, gemodializ, gemosorbsiya, qon almashtirish va boshqalar amalga oshirilishi lozim. Forsirlangan diurez usulida organizmga vena orqali katta miqdordagi suyuqliklar bilan birga yuqori faollikka ega bo’lgan diuretiklar (furosemid, etakrin kislotasi, mannit) ni kiritish tavsiya etiladi. Forsirlangan diurez usulida organizmda katta miqdorda elektrolitlar muvozanatining buzilishi kelib chiqishi tufayli uni o’tkazishning o’ziga xos qarshi

ko‘rsatmalari ham mavjud bo‘lib, yurak-qon tomir o‘tkir yetishmovchiligi, buyrak faoliyatining kuchli buzilishi, miya va o‘pka shishi xavfi bo‘lgan holatlar shular jumlasidandir. Peritoneal dializ usulida qorin bo‘shlig‘i katta miqdordagi elektrolitlar eritmasi bilan yuviladi. Mazkur usulning samaradorligi yuqori bo‘lishi bilan birga, barcha kimyoviy birikmalar ham dializlanavermasligini ham unutmash lozim. Gemodializ (sun‘iy buyrak) usulida qon yarim o‘tkazgich membranali dializator orqali o‘tkaziladi va katta miqdordagi oqsillar bilan bog‘lanmagan zaharlovchi moddalarni ajratib oladi (masalan, barbituratlar) [9].

Gemosorbsiya usulida toksikasiyaning bir turi bo‘lib, unda qondagi zaharli moddalarni maxsus sorbentlar (masalan, qon oqsillari bilan qoplangan granulalangan faollashtirilgan ko‘mir) yordamida absorbsiya qilinadi. Qon almashtirish usuli – dori moddalari bilan o‘tkir zaharlanishlarning og‘ir kechishida ishlatiladi. Bunda bemordan qon olish bilan birga unga yangi qon ham quyiladi. Bu usul ko‘pincha qonda metgemoglobin hosil qiluvchi birikmalar bilan zaharlanishlarda juda qo‘l keladi, masalan, nitratlar, nitrobenzollar va b. Shuningdek, ushbu usul oqsillar bilan kuchli bog‘lanuvchi yuqori molekulyar birikmalar bilan zaharlanishlarda ham juda foydalidir. Tromboflebitlarda va qon aylanishining kuchli ifodalangan buzilishlarida qon almashtirish usulini qo‘llash mumkin emas.

3) qonga so‘rilgan moddaning zaharliligini bartaraf etish Agarda bemorning qaysi modda bilan zaharlanganligi aniq bo‘lsa, unga nisbatan ziddi zaharlar (antidot) qo‘llash orqali organizm detoksikasiya qilinadi. Ziddi zaharlar – turli kimyoviy moddalar bilan zaharlanishlarni spetsifik davolovchi vositalardir. Ularga zaharlovchi moddalar bilan fizik yoki kimyoviy o‘zaro ta’sirlashuvchi yohud farmakologik antagonizm (fiziologik retseptorlar va tizimlar) orqali ta’sir qiluvchi vositalar kiradi.

4) o‘tkir zaharlanishlarni simptomatik davolash Yuqorida keltirib o‘tilgan davolash chora-tadbirlari bilan bir qatorda o‘tkir zaharlanishlarni (ayniqsa, spetsifik ziddi zaharlari bo‘lmagan dori moddalari bilan) davolashda ular keltirib chiqargan belgilarga qarshi simptomatik davo o‘tkazish ham o‘ziga xos ahamiyatga ega. Yuqorida ta’kidlanganlardan ko‘rinib turibdiki, dori moddalardan o‘tkir zaharlanishlarni davolashda majmuaviy detoksikatsion hamda simptomatik davo chora-tadbirlari bilan birga zarur paytlarda reanimatsion jonlantirish amaliyoti ham olib boriladi [10.11].

Dori moddalar bilan o‘tkir zaharlanishlarning oldini olish har bir insonni xamda shifokorning asosiy vazifasi hisoblanadi. Buning uchun har bir inson MNS tizimiga ta’sir qiluvchi preparatlarni shifokor ruxsatisiz qabul qilmaslik va shifokorlar dori vositasini asosli ravishda tavsiya qilish va shuningdek, dori preparatlarini kasalxona hamda uy sharoitida saqlanishiga juda katta ahamiyat berish lozim. Dori vositalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan birgalikda shkak va muzlatkichlarda saqlash mumkin emas. Agarda barcha tibbiy xodimlar va tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan oddiy insonlar yuqorida ta’kidlab o‘tilganlarga to‘liqrioya qiladigan bo‘lsalar, u holda dori moddalar bilan o‘tkir zaharlanishlarning oldi olinishiga 100 foiz kafolat berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Obshaya vrachebnaya praktika. Klinicheskie rekomendatsii farmakologicheskiiy spravochnik. Pod. Red. I.N. Denisova, YU.L. Shevchenko, F.G. Nazirova. – M.: GEOTAR-Media, 2005.

2. www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sit
3. 2185.html;://medvedev-ma.narod.ru/farmakologia/0.htm;
4. Abidova F.A., Abidov A.B. “Kuchli ta’sir etuvchi zaharli moddalarning hususiyatlari”. - O‘zR FVV FMI: 2013 y. – 530 b.
5. Mirzaalimov S.T. "Экономика и социум" №12(91)-1 2021
6. Boymirzaev A. “Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam”. - T: “Zilol buloq”. 2019 y. - 396 b.
7. Azizova S.S. Farmakologiya.-Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot.1994 yil.
8. Lujnikov E.A. Klinicheskaya toksikologiya. M., «Meditsina», 1982 yil, 368-bet.
9. Lyudevig R., Loos K. Ostrые otravleniya. Pod redaktsiey E.V.Gembitskogo, M., «Meditsina», 1983 yil.
10. Mamatov I.I. Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofazasi bosqichlari. Toshkent 1997 yil. Ibn Sino nashriyoti.
11. Mashkovskiy M.D. Lekarstvennyye sredstva.1-2 tom. M., «Meditsina», 1986